– Работать он должен так же, как и его пчелы. Весной и летом встаем с рассветом. У нас комплекс, поэтому работы много и зимой. Зато все свое и с людьми делимся.

– Какого бы отношения к пчелам вам хотелось?

– По заслугам. Бережного. Как к спасителям мира, а не только производителям полезного лакомства. Чтобы их жужжание всегда говорило о силе, энергии и чистоте окружающей среды.

Беседовала  
Ольга АЛЕКСАНДРОВА

Страна встретила День памяти и почестей. Но наши читатели продолжают делиться воспоминаниями о героях, о тех, кто приближал победу всеми силами. Вот и учащиеся школы №209 Мирзо-Улугбекского района столицы не смогли остаться в стороне. В работах старшеклассников прослеживается одна мысль: молодое поколение земного шара должно выступить против развязывания войн. Мир – залог счастья и процветания, гармоничного развития личности.

## Мальчишка на войне

Один поэт написал: «Где-нибудь да кроветочечество», то есть «горячие точки» уносят жизни и калечат судьбы в любые времена.

На дворе XXI век. Думал ли армянский парень Шаварш Алиханян, что его призыве на срочную службу закончится войной? Что озон и смерть станут рядом? Он увидел, как гибнут товарищи, такие же парни, как он. Ожог третьей степени, проблемы с позвоночником, два дня без еды и воды... После взрыва его считали убитым, и только мать не верила, что сына, единственного мужчину в семье, больше нет.

Парень за эти дни прожил долгую жизнь, стал старше на многие годы. И думал только об одном: «Лить бы не попасть в плен и вернуться домой, пусть убитым, но домой, к маме!»

Понадобилось немало времени, чтобы восстановились здоровье и потерянная память. Шаварш снова собрал документы в университет. Учеба, а не война – это должно быть судьбой молодых. Им не автоматы держать надо, а заниматься наукой во имя мира на земле.

Српун МКРТЧЯН

## Возвращение

Бахтиёр на время летних каникул устроился помощником в ближайший фотосалон. И интересно, и небольшая зарплата. Все лучше, чем дома сидеть без дела.

Каждый день с любопытством наблюдал, как реставрируют, обновляют старые снимки. Мастер предложил киноше принести какое-нибудь семейное фото, о котором все забыли, и дать ему вторую жизнь в новом цвете, сделав сюрприз для родных.

Перелистывая вечерний альбом, Бахтиёр наткнулся на пожелтевший конверт. Заглянув внутрь, обнаружил письмо на тонком, почти прозрачном листке. Оно было написано карандашом, буквы различались с трудом.

«Здравствуй, милая Джамил! Очень скучаю без Вас! Уже третий день безвылазно сижу в окопе, и это, наверное, продлится долго, пока держим оборону.

Сегодня проснулись – думали, дождь будет: небо хмурое. Только через пару минут понял, что небо затянуто не тучами, а дымом от вражеских снарядов.

Очень хочется вернуться туда, в мирную жизнь, где мы были так

счастливы и ждали рождения нашего сына Камилджана. Как жаль, что я не видел его первых шагов, не слышал его первых слов, не держал его на руках. Единственная карточка, где мои родные, вдвоем, находится у меня под сердцем, и мысли о вас спасают от ужасов войны, от этого злого, чужого мира».

На этом письме прерывалось. Бахтиёр заглянул в конверт и увидел фото молодого солдата. На оборотной стороне прочитал: «Анвар, 19 лет».

«Наверное, автор письма», – подумал мальчик.

Бахтиёр снова стал разглядывать фото бойца и обратил внимание на глаза: они были такими грустными, как будто продолжали говорить о потерянном счастье.

Паренек подошел к матери спросить про Анвара, Джамилю, Камилджана, но женщина разговаривала по телефону с подругой и лишь махнула рукой, чтобы ей не мешали. Отец же, не отрываясь от экрана, смотрел очередной футбольный матч.

Мысли Бахтиёра снова и снова возвращались к парню на фото и не давали покоя:

– Ведь он всего на четыре года старше меня был в то время, а какая разная у нас жизнь!

Бахтиёр стал перебирать в уме имена всех родственников, и его осенило:

– Дед, он же Камил! Мальчик выбежал на улицу, где дедушка играл с друзьями в домино, и спросил с ходу, показывая фотографию: – Кто это?

Дед, взяв в руки фото, изменился в лице:

– Где? Где ты нашел? Это мой отец! Единственная фотография и письмо, что сохранились у мамы. Как она перед смертью искала это послание!

– Я своего отца так и не увидел!.. Война... – грустно опештел дед Камил.

Теперь-то Бахтиёр знал, какое фото будет реставрировать.

Через пару дней в комнате дедушки он повесил фотографию, ничего не изменив в ней. Даже не добавил яркости красок в выцветший снимок. Просто увеличил его, чтобы отец и сын встречались глазами: Ведь в жизни им этого не было дано.

И теперь, когда в День памяти и почестей поздравляли ветеранов и проносили привычные слова про мирное небо, Бахтиёр слушал их с щемящим сердцем: ведь небо у нас действительно мирное и голубое, но многие просто не смотрят вверх.

Мария ЯКИМЧУК



# O'ZBEKISTONLIK 21-25 YOSHNI OILA QURISHGA ENG YAXSHI YOSH DEB HISOBLASHADI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

So'rov natijalarining ko'rsatishicha, (41,2 foiz) ishtirokchilarning oilalarida nizo va janjallar bo'lib turadi. Fuqarolarning fikriga ko'ra, quyidagilar so'nggi yillarda oilaviy mojarolar yuzaga kelishining asosiy sabablari hisoblanadi: oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunmovchilik; moddiy qiyinchiliklar; o'zining oilaviy majburiyatlariga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish; er-xotindan birining o'z hukmini o'tkazishga, so'siz bo'yundirishga erishishga intilishi; boshqa oila a'zolarining manfaatlari va fikrini inobatga olmaslik; oila a'zolarining bir-biriga befarqligi; er-xotindan birining spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi; oilaning biron-bir a'zosi kasalligi va shular bilan bog'liq muammolar.

So'rov ishtirokchilarining aksariyati er tomonidan xotinga nisbatan jismoniy kuch ishlatilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Biroq o'zbekistonliklarning jamoatchilik fikrida xavotirli tendensiya ham kuzatiladi: 10,3 foiz respondentlar ayrim hollarda kuch ishlatish mumkin, deb hisoblaydilar. Respondentlar ushbu qismning fikriga ko'ra, ayol o'z xatti-harakati bilan erini kuch ishlatishga majbur qilgan hollarda jismoniy zo'rvonlik holatiga yo'l qo'yish mumkin. Respondentlarning fikricha, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish (23,5 foiz), o'zaro tushunmovchilik (22,1 foiz) va moddiy qiyinchiliklar (20,6 foiz) ayolga nisbatan jismoniy zo'rvonlik namoyon bo'lishining sabablari hisoblanadi.

«Erta nikohlar, ularning sabab va oqibatlarini to'g'risida o'zbekistonliklarning fikri» mavzusidagi tadqiqot o'zbekistonliklarning mazkur voqeikka munosabati bilan bog'liq masalalarni o'rganish imkonini berdi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 18 yosh – erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham qonun bilan belgilangan nikoh yoshi ekanligidan xabardorligi o'rtacha darajada ifodalandi.

O'zbekistonliklar 21-25 yoshni ham qizlar, ham yigitlar uchun oila qurishga eng yaxshi yosh deb hisoblashadi. Boshqacha aytganda, respondentlarning fikriga ko'ra, yoshlarning nikohga kirish vaqtini kechiktirishlari uchun ma'lumot olish yoki kasb-hunar egallash, moddiy mustaqil bo'lishga imkon beradi.

Telefon so'rovi, umuman olganda, erda nikoh odatda erda yosh orqali aniqlanishi haqidagi to'g'ri tasavvurni aniqlab berdi. Ayni paytda respondentlarning 18 yosh ham qizlar, ham yigitlar tomonidan nikoh tuzilishi uchun erda yosh hisoblanishiga ishonchli komil.

Respondentlarning fikriga ko'ra, ayol uchun erda nikohga kirish va buning natijasida barvaqt homiladorlik va tug'ish uning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, jumladan, qizlarga hayotning turli sohalarda o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyatlar va ta'lim olishni cheklaydi.

O'tkazilgan so'rov erda nikohlar sabablarini aniqlash imkonini berdi. Ular orasida: ota-onalarning



o'z farzandlari oilaviy hayotini tezroq yo'lga qo'yishga intilishi (48,1 foiz), lozim darajadagi tarbiyaning mavjud emasligi va yoshlarning reproduktiv salomatlik masalalarida savodsizligi (25,9 foiz), foydali nikoh hisobidan o'zining moddiy ahvolini o'nglash istagi (22,5 foiz), rejalashtirilgan homiladorlik (15,2 foiz) va hokazolar bor.

O'zbekistonliklar erda nikohlarning salbiy oqibatlarini sifatida quyidagilarni ko'rsatishdi: ehtimoliy ajrimlar (49,6 foiz), xotin-qizlarning reproduktiv salomatligi va bolalar salomatligiga salbiy ta'sir (44,8 foiz), ehtimoliy maishiy zo'rvonlik (19,5 foiz) va hayotning turli sohalarda o'zini namoyon qilish imkoniyatiga salbiy ta'sir (17,5 foiz).

«Oilaviy ajrimlar, ularning sabab va oqibatlarini haqida o'zbekistonliklarning fikri» mavzusidagi tadqiqot fuqarolarning ushbu muammo haqida, respondentlarning yoshi, ma'lumoti darajasi va jinsiga qarab ajrimga bo'lgan munosabatining o'ziga xos xususiyatlarini haqidagi fikrlarini aniqlash imkonini berdi. So'rov ko'rsatganidek, jinsi, yoshi, ma'lumoti darajasi va bandlik sohasidan qat'iy nazar, so'rov ishtirokchilarining mutlaq ko'pchiligi (81,3 foiz) ajrim – bu oila, jamiyat hayotidagi salbiy holat, deb hisoblaydi.

Tadqiqot davomida uning ishtirokchilarining ta'kidlashlaricha, qadriyatlar, shaxsiy va ruhiy-fiziologik xususiyatlarining eng maqbul tarzda uyg'unlashuviga asoslanib, er-xotin fe'l-atvorlarining bir-biriga mosligi, ularning o'zaro munosabatlarni o'rnatish, saqlash va uzoq vaqt davomida saqlab turish qobiliyati nikoh mustahkamligining asosiy garovi hisoblanadi.

Tadqiqot er-xotinning nikohgacha bir-birini tanishligi davri muddati olinan mustahkamligiga ta'sir ko'rsatishini aniqlab berdi. Er-xotinning nikohgacha tanishligining qisqa muddati bo'lajak er-xotinda bir-birlari haqida har birining haqiqiy fazilatlariga mos kelmaydigan yangiligi tasavvurlarni hosil qilishi mumkin. Hozirgi vaqtda, so'rov natijalari ko'rsatganidek, bo'lajak er-xotinning nikohgacha bir-biriga tanish bo'lishining bir yildan kam – qisqa muddati yetarli, degan qarash

mavjud, bu oilaning mustahkamligiga putur yetkazuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, respondentlar orasida turmush o'trog'ini ota-onalarning bevosita ishtirokida tanlash usuli keng tarqalgan. Bunda ota-onaning fikri o'g'li yoki qizining turmush o'trog'ini tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'plab yoshlar uchun bu norma hisoblanadi, chunki oila qurishning mazkur usuli ota-onaga hurmat, ularning hayotiy tajribasiga ishonish, baxtli, mustahkam oila qurishga yordam berish istagiga asoslangan. Ikkinchi tomondan, oila qurishning ushbu usuli oilaning mustahkamligiga putur yetkazishi mumkin va ba'zan ajrimga olib keladi. Bu er-xotin o'rtasida muhabbat va o'zaro bog'liqlik hissi paydo bo'lgan hollarda yuz beradi. Hozirgi sferoatda yoshlarda nikohning sifatiga bo'lgan talablar oshgan, endi ular sevmagan odam bilan oilaviy baxtsiz yashashni xohlamaydi va yashay olishmaydi va bunday nikohni buzishni afzal ko'rishadi.

49,7 foiz so'rov ishtirokchilarining fikriga ko'ra, oila instituti barqarorligi pasayishining asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, zamonaviy yoshlar oilaviy hayotga tayyor bo'lmagan holda: ma'naviy yetuklikka erishmasdan, tugallangan ma'lumotga, kasb-hunarga, alohida uy-joy va oilani ta'minlash uchun yetarli miqdordagi ish haqiqi ega bo'lmay turib nikohga kiradilar.

So'rov globallashtirish va ommaviy madaniyat oila instituti barqarorligi pasayishining omili ekanligini aniqlab berdi (24,0 foiz). Ular ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning dunyoqarashiga, qadriyatlariga va qarashlariga ta'sir ko'rsatadi, barqaror oila qurish qobiliyatini pasaytiradi.

So'rov natijalariga ko'ra, 45 yoshdan katta respondentlarning aksariyati ota-onalarning yosh oilaning hayotiga aralashuvi uning mustahkam bo'lishiga yordam beradi, degan fikrga qo'shiladi. Bo'y yetgan farzandlarning ota-onalari bo'lgan fuqarolar oilaning ichki hayotiga aralashishi joiz, bu yosh er-xotinga xatolarga yo'l qo'yimaslikka va farzandlar

nikohining mustahkam bo'lishiga yordam beradi, deb hisoblaydilar. Yoshlarning kattagina qismi qarama-qarshi fikrda: 18-24 yoshdagi har ikkinchi respondentning fikricha (50 foiz), ota-onalarning aralashuvi salbiy omil hisoblanadi, oilaning mustahkamligiga putur yetkazadi va er-xotin o'rtasidagi mojarolarga olib keladi. 20,9 foiz so'rov ishtirokchilarining fikriga ko'ra, bunday aralashuv – oilaviy ajrimlarning keng tarqalgan sababi hisoblanadi.

So'rov oiladagi ajrimlarning eng keng tarqalgan sabablarini aniqlab berdi: er-xotin fe'l-atvorlarining mos kelmasligi (41,2 foiz) va oiladagi moddiy muammolar (40,4 foiz).

Bepushtlik – 12,6 foiz respondentlarning fikriga ko'ra, nikoh buzilishining eng keng tarqalgan sabablaridan biri hisoblanadi. Farzand ko'rolmaslik – bu oila uchun jiddiy muammo va farzand ko'rishga intilayotgan turmush o'trog'i, erkak va ayol, agar oilada uzoq vaqt mobaynida farzand bo'lmasa, ajrashish uchun ariza berishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayol eri tomonidan zo'rvonlikka duchor etilgach, nikohni saqlab qolish uchun yuzaga kelgan vaziyatga toqat qilishi, dadil va keskin harakatlar qilmasligi kerak qabilidagi qarash tufayli oiladagi zo'rvonlik ko'p hollarda er-xotin o'rtasidagi ajrimga olib kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, 12,6 foiz respondentlar oiladagi zo'rvonlikni oila buzilishining keng tarqalgan sababi, deb hisoblaydi.

Tadqiqot er bilan xotin o'rtasidagi mojarolarning oxirgi vaqtda paydo bo'lib, ba'zi hollarda ajrimga olib keladigan ancha zamonaviy manbasini aniqlab berdi – bu ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish bo'lib, u ko'p vaqt va e'tiborni oladi hamda rashkni qo'zg'atadi (12,2 foiz).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oila tanazzulga yuz tutgan vaziyatda nikohni saqlab qolishning eng muhim omili – bu farzandlarning mavjudligi (37,8 foiz). Shu bilan birga, so'rov shuni ko'rsatdiki, farzandlarning mavjudligi er-xotinni nikohni bekor qilishdan to'xtatishi mumkin, lekin ularni ajrashish to'g'risidagi qarorga olib kelgan muammolarni bartaraf etmay-

di. Agar oilada chuqur, hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar bo'lsa, u holda nikohni bolalar uchun saqlab qolib, er-xotin yana eski muammolarga duch kelishadi va oila o'sha beqarorligicha qoladi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, jamoatchilik fikrida oilada qanday muammolar mavjud bo'lmasin, er-xotin nikohni bekor qilmasligi kerak, degan fikr ustuvorlik qiladi. Oilani saqlab qolish va farzandlarni tarbiyalash uchun ular bir-biriga toqat qilib, yuzaga kelgan vaziyatga qo'shilishadi. Respondentlarning taxminan chorak qismi (25,2 foiz) ba'zi hollarda ajrashish yagona yo'ldir, boshqa holatlarda er-xotin oilani saqlab qolish uchun kurashishlari kerak, deb hisoblaydi. Bunday nuqtayi nazar ko'proq yoshlarga xosdir.

Tadqiqot ishtirokchilari (51,3 foiz) nikohni bekor qilish tartib-qoidalarni murakkabligi ajrimlarning oldini olish nuqtai nazaridan o'zini oqlaydi, deb hisoblaydi. Respondentlarning ta'kidlashlaricha, o'rtasidagi ziddiyatlar unchalik chuqur va murosasiz bo'lmagan er-xotinni bunday jarayon ajrimdan to'xtatishi mumkin. 13 foiz respondentlarning fikriga ko'ra, ajrimning murakkab tartib-qoidalari soddalashtirilishi kerak, chunki yuqori miqdordagi boj va byurokratik cho'zishlar oilani saqlab qola olmaydi, balki faqat shush ham ruhiy jihatdan og'ir bo'lgan ajrim jarayonini yanada mashaqqatli qiladi.

So'rovda ayol ajrimdan keyin duch keladigan eng keskin muammolar aniqlandi: moddiy muammolar (47,2 foiz), uy-joy muammosi (21,3 foiz), to'liqsiz oilada bolalarni tarbiyalashning murakkabligi (28,7 foiz), boshqa fuqarolar tomonidan bildiriladigan salbiy munosabat (44,8 foiz).

So'rov natijalariga ko'ra, fuqarolarning oilaviy ajrimlarga nisbatan salbiy munosabati, avvalo, uning farzandlar uchun og'ir oqibatlarini bilan bog'liq. Agar ajrashgan er-xotinning farzandi bo'lmasa, fuqarolar nikohning bekor qilinishiga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, oila o'zbekistonliklar uchun asosiy hayotiy qadriyat bo'lib qolmoqda. Fuqarolarning tasavvurida mamlakatimizda oilaning o'ziga xos fazilatlarini – mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, bolalarga muhabbat, katta avlodning yuqori nufuzi, oila a'zolari o'rtasidagi muhabbat va ma'naviy yaqinlik, o'zaro hurmat va o'zaro tushunish tufayli qurilgan munosabatlardir.

So'rov ishtirokchilarining mutlaq ko'pchiligi mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar oilaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini oshiradi, oilalar farovonligini mustahkamlashga va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, degan fikrga qo'shiladi.

“Ijtimoiy fikr” markazi  
ma'lumotlari asosida  
O'ZA muxbiri  
Ziyodulla JONIBEKOV  
tayyorladi.



OG'RIQ

## Oilalarni yarashtiradimi yo urishtiradimi?

Mana, qo'ng'iroq chalinib, dars mashg'ulotlariga yakun yasadi. Bugun ham barcha fanlardan "5" baho olganimni, ayniqsa, misollarni, tenglamalarni to'g'ri ishlaganim uchun matematika ustozimiz qolgan sinfdoshlarimga meni o'rmaq qilib ko'rsatgani uchun ichimga sig'mas darajada baxtli edim. Bu quvonchli voqeani uydagilarga aytib, maqtanish uchun oshiqdim. Bo'lgan barcha voqea-hodisalarni tin olmasdan, nuqta-verguligacha opamga so'zlab berdim. Hattoki, sinfdoshim mendan uyga vazifalarni ko'chirmoqchi bo'lib, daf-tarimni yalinib so'raganidan tortib, dugonam Zarinaga ustozimiz tanbeh berganigacha. Barcha gaplarimni bir chetda eshitib turgan buvim shunda:

— Qizalog'im, barakalla, a'lo baholar olibsan. Lekin maktabda bo'lgan har bir voqeani uyga kelib gapirish tog'ri emas. Ayniqsa, sinfdoshlaring bilan bog'liq noqulay holatlarini. Maktabdagi sinfing bir oila. Sen u oiladagi gaplarni bu oilangga olib kelib omonatga xiyonat qilding. Chunki u gaplar sizlarga ishonib aytilgan. Shuni doimo yodingda tut. Hech qachon oilang-

da bo'layotgan gaplarni maktabingga, maktabdagi gaplarni bizga aytib kelmagin. Har bir oilada ichki masalalari bo'ladi. Sen ularni olib chiqqan kuning omonatga xiyonat qilgan bo'lasan, — dedilar.

To'g'risi, bu gaplarni eshitib, barcha "5"larim havoga uchib ketdi. Hozirgina nafas olishni ham unutib maqtanayotgan edim, lekin buvimning so'zlaridan keyin beixtiyor ikki yuzim loladek qizarib ketdi...

Hozir televideniya-da efirga uzatilayotgan ko'rsatuv sabab bir zum xotiralar olamiga sho'ng'idim. Lekin ko'rsatuvdagi baqir-chaqirlar, oilalarning janjallari, ekspertlarning fikrini tinglamay, aybni bir-biriga to'nkayotgan er-xotinlar ovozi xayollarimni to'zg'itib yubordi. Darhaqiqat, bugun qaysi telekanalni tomosha qilimgan, doimgidek o'xshash mavzular: er-xotin yoki qaynona-kelinning janjali aks etgan serial, ko'rsatuvlar. Bu kabi namoyishlar ko'p efirga uzatilayotganidan baxtli tinch-totuv oilalar, qaynona-kelinlarning iliq munosabatlari xom-xayollar-uruzga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, oilalarni yarashtiramiz, muammo-

larini bartaraf qilamiz, deya tashkil etilgan ko'rsatuvlarni yoxud oilasining nizolarini bong urib olib chiqayotgan ayrim "oilalar"ni aytmaymizmi? Tunov kuni to'satdan bir ko'rsatuvga ko'zim tushdi. Uzoq viloyatdan kelgan kelinchak qaynona-qaynotasi ularning turmushiga qarshi ekani, lekin turmush o'rtog'i ayolini yoqtirishini, oilasidagi bu kabi nizolarini, tushunmovchiliklarni aytib berayotgan ekan. Shunda boshlovchi voqea buyonini batafsil o'rganish ilinjida o'sha kelinchakning turmush o'rtog'i bilan telefon orqali bog'landi. U esa oila sirini ko'chaga olib chiqqani uchun ayoli bilan qaytib yashamasligini aytdi. Oilasini tiklash asnosida kelgan bu kelinning oilasi endi batamom buzildi...

Barcha oilada ham bo'lib turadigan muammolarni "ayyuhannos" solib, ovoza qilish millatimizga qay darajada to'g'ri keladi? Uning ustiga hech qanday yechim topib bera olmayotgan, aksincha, ko'pchilikka "o'rmaq" bo'layotgan bu ko'rsatuvlarning efirga uzatilishidan nima naf?..

Sevinch O'ROLOVA,  
O'zJOKU talabasi

QATRA



**"Urush yillari bir mayizni qirq bo'lib yeganmiz, yo'qchilik paytlari qanday ko'rgiliklarni ko'rmaylik, ayollik sha'nimizga dog' tushirmadik", derdi buvim.**

Kun qizigandan-qizidi. Usti-ga-ustak uyda tandirga o't yoqib non, undan so'ng somsa yopdik. Oyim issiq kulcha va somsalarni dasturxonga o'rarkan, buvimdan xabar olib kelishimni aytdi. Issiq bo'lishiga qaramay yo'lga otladim. Chunki o'tob yuzli buvijonimni ko'rish, ular bilan suhbatlashish menga doim maroq bag'ishlardi.

Buvimlarning uyi uncha uzoq emas, juda bo'lsa 20 daqiqalik masofa. Ketarkanman, ko'cha boshida bir ayol meni imlab chaqirdi: "Dildoraxonning uyi qayerda, qizim, bilmaysizmi?", dedi u. Buvimning uyiga tez-tez kelib turadigan xushbichim bu ayolni yaxshi tanirdim. Meni doim "puchuk qizim" deb erkalaydigan opaning uyiga ayolni boshladim. Dildora opanikida o'yin-kulgi avjida, ayollar ziyofati bo'layotgan ekan. Turli noz-u ne'matlar, sarxil mevalar, charos uzumdan tortib, rang-barang shirinliklarga qo'yilgan dasturxon ustidan chiqdik. Xorij kuy-qo'shiqlariga raqs tushayotgan ayollar, ular ichidan chiqib kelgan Dildora opa bizni kulib qarshiladi. Hamrohim ham tezda ularning davrasiga qo'shildi.

Men esa endi ortimga qaytay deyotganimda dasturxonida turgan ichimliklar e'tiborimni tortdi. Ochig'i, dilimni xira qildi. Sharbatlar orasida pirtli ichimliklar ham turardi. Bundan ham xunuk manzara o'sha ichimliklarni davradagi ayollar tortinmay ichishardi. Bunday ichimliklarni faqat erkaklar ichadi, ayollar xuddi mening buvimdek munis, oyimdek kamtar bo'ladi, degan tushuncham bilan ro'paramda qah-qah urib, zahri qotilni yutayotgan ayollarning yuzi ko'z oldimda ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Boshimdan oyog'im uchigacha sovuq ter bosib, bazo'r hovlidan chiqdim. Bolaligidan meni "Puchuk qizim" deya erkalaydigan Dildora opam endi ko'zimga

qandaydir xunuk, bachkana bo'lib ko'rindi.

... Buvijonim kechalari bizni uxlatish uchun ertaklar, ba'zan hayotiy voqealarni so'zlab berardi. O'z yoshligi haqida so'zlarkan mahalla xotinlari bilan she'riyat kechalari, mushoiralar bo'lishini, o'smalar qo'yib, uzundan-uzoq dostonlarni yod olishganini aytib berardi. Kunduzi uy yumushlaridan charchagan ayollar, mana shunday yoqorlashuvlarda uzun kechalarni she'rga, qo'shiqqa to'ldirganini eshitib, o'zbek ayollari shunday bo'ladi degan tasavvurda ulg'aygandim. Ammo besh qo'l barobar emas ekan.

Buvim: "Oilali bo'lganidan so'ng ham ishlarni bu erkak kishining ishi, bu ayolniki deb, ajratmadim, vaqti kelganda traktor tuzatib, dalaga yer haydagani chiqdim. Urush yillari, yo'qchilik paytlari qanday ko'rgiliklarni ko'rmaylik, ayollik sha'nimizga dog' tushirmadik", derdi doim. Shularni o'ylarkanman, og'ir zamonlarda yashagan, mehnat qilgan buvimlar shunday bo'lgan-u, nega bular hozirgidek tinch-osuda, to'qchilik zamonida to'qlikka sho'xlik qilishlarini tushunolmasdim.

Yo'lda ketarkanman, negadir yig'lagim kelar, men ko'rgan no-xush manzaralar qalbimni o'ksitgan, ko'z yoshim yuzimdan oqardi. Buvimning uyiga yetib kelganimni ham bilmabman. Darvozani ochib ichkariga kirdim, chakkasiga rayhon taqib, oq ro'mol o'rab olgan farishtadek buvim supada ko'rpaga qavib o'tirar, ularni ko'rgach birdan qalbimga yorug'lik kirdi va ko'nglim qoyushdek yorishib ketganini his etdim. So'ng xayolimdan shunday tilak o'tdi: "Yaxshilar dunyoni tutib turadigan ustun, ularga o'xshash bizga ham nasib etsin!".

Sabohat SAIDRIZO,  
O'zJOKU talabasi

## Xalqaro konferensiya o'tkaziladi

Joriy yil 19–21-may kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Milliy kutubxonasi 150 yilligi nishonlanishi munosabati bilan "Central Asia — 2021: Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot kutubxonalar resurslari" XIV xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tadi.



Bu haqda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida tegishli vazirlik va idoralar hamkorligida tashkil etilgan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

Ta'kidlanganidek, navbatdagi xalqaro konferensiya fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida elektron axborot resurslarni rivojlantirish va qo'llashda axborot-kutubxonalar muassasalari, o'quv yurtlari, arxivlar, muzeylar hamda boshqa tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, kutubxonalar faoliyati muammolari, ularning innovatsion rivojlanish yo'llarini topishda muhim ahamiyatga ega.

Har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan ushbu tadbir doirasida bu yil marotaba Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning gumanitar hamkorligi bo'yicha "Kitob va mutolaa — jamiyat

taraqqiyotining strategik resursi" mavzuida forum ham tashkil etiladi.

Bundan tashqari, axborot-kutubxonalarini rivojlantirish, aholiga axborot-kutubxonalar xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy-madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish ishlariga munosib hissa qo'shgan, jamiyatda mutolaa madaniyati, kitobxonlikni keng targ'ib qilish va yosh mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida samarali mehnat qilgan fuqarolarni "Axborot-kutubxonalar a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash ko'zda tutilgan.

Konferensiya doirasida "Kitob va mutolaa jamiyat rivojlanishidagi strategik resurs" hamdo'stlik forumi o'tkaziladi.

Iqbol PARDAYEVA



**B**olaligimda bir ertak eshitgandim. Qurbaqaga aylanib qolib, keyinchalik asliga qaytgan shahzoda avvaliga hech narsani eslay olmaydi. Malikaning allasini eshitgachgina, o'zining shahzodaligini, alla aytayotgan ko'zi ojiz inson onasi ekanini eslaydi. Ona va bola bir-birini alla orqali taniydi. Bu bir ertak, lekin uning zamirida haqiqat bor...


Tadqiqotchilarning aniqlashicha, alla bola ruhiyati, salomatligiga va bardam-baquvvat o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatarkan. Ona va bolani ko'rinmas rishta bilan bog'lab, ona organizmi tiklanishiga ham katta yordam berar ekan. Bu haqda ma'lumot olish uchun tibbiyot fanlari doktori Elmira Shomansurovaga murojaat qildik:

— Allaning ahamiyatini dunyodagi ko'plab olimlar o'rgangan, — deydi Elmira Shomansurova. — Qizlarni onalikka tayyorlash borasida olib borilgan tibbiy tadqiqotlarda alla go'dak salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, turli yuqumli kasalliklar (masalan, pnevmoniya, diariya)ga chalinish xavfini kamaytirishi aniqlangan. Ma'lum bo'lishicha, alla inson immuniteti butun umrga mustahkam bo'lishida ham katta o'rin tutadi. Bu ovoz terapiyasidan kuniga 2-3 mahal, ovqatlanishdan so'ng 10 daqiqadan oshirmay foydalanish mumkin.

ning onalarga bolani emizgandan so'ng kuniga 2-3 marta alla aytib turishni tavsiya qilishi ham shunday.

Alla boladagi turli hissiyotlar va ongning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar alla aytilayotgan paytda bola miyasining turli sohalaridagi biologik potentsiallari sinxron ravishda ta'sirlanishini ko'rsatgan. Allani bema'lol sog'lomlashtiruvchi psixoterapevtik ta'sirga ega, deyish mumkin. Agar alla chaqoloqqa dastlabki kunlardan oq aytilsa, uni turli kasalliklardan himoya qilib, vujudining kuchga to'lib borishiga xizmat qiladi.

Psixologlarning tasdiqlashicha, ona va bola o'rtasida o'ziga xos aloqa o'rnatilishi lozim. Negaki, ona alla ayta turib, kun davomida o'zida yig'ilib qolgan hadik, hayajonlanish va turli salbiy hissiyotlarni chetga surib, butun diqqat-e'tiborini go'dakka qaratadi. Unga ijobiy iliqlik, mehr berib, silab-



MULOHAZA UCHUN MAVZU

*Q'zlikni anglash sari ilk qadam*

**yoxud allani onalar qalbiga qaytarish kerak**

Alla bolani uxlatishga qaratilgan bois bir tongdagi ovoz va ohang tanlanadi. Eng qizig'i, bunda onaning musiqiy iste'dodga va shirali ovozga ega bo'lishining ahamiyati yo'q. Tibbiyot olimlarining aniqlashicha, alla bola miyasining o'ng yarim sharini harakatga keltirib, aqliy faollikka turki beradi va diqqatni oshiradi. Mutaxassislar umumiy ruhiy siqilish sindromi, nafas olish ritmi buzilishi, yurak qisqarishi chastotasining kamayishi (bradikardiya), ichaklar motorikasidagi muammolar, muddatidan erta tug'ilish va kichik vaznga ega bo'lish bilan kechadigan perinatal entsifalopatiya (bosh miya funksiyasi yoki tuzilmasi buzilishi) ga chalingan bolalarga alla ayitshni tavsiya etishadi. Alladagi o'ziga xos ohang, ritm, harakat va nutq buzulishlari (a'zolar uchishi, duduqlanish, harakatlarning o'zaro nomuvofiqiligi) oldini olishga yordam berishi tajribalarda aniqlangan.

Alla ayitsh ona salomatligi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tug'ruqdan so'ng onaning organizmi tez tiklanishga yordam beradi. Tibbiy kuzatuvlarga ko'ra, alla aytgan onaning ko'kragiga sut kelishi ko'payarkan. Shifokorlar-

siyalaydi. Go'dak ham uning ovozi ohangini, erkalashlarini tez va oson qabul qiladi, o'zini himoyalangan hisoblaydi. Bu esa unga seskanib uyg'onib ketavermasdan, tiniqib uxlashiga yordam beradi.

**ALLANI KIMDAN, QAYERDAN O'RGANSA BO'LADI?**

Aslida allaning aniq bir matni yo'q. Uni har bir ona yurak tubidan chiqarib aytadi. O'zining hayoti, farzandidan kutayotgan orzu-niyatlarini alla ohangiga moslab aytaveradi. Bizningcha, bolaligida qulog'iga alla singdirilgan qizaloq bir kun kelib ona bo'lganida yurak-yurakdan yana shu ohangni takrorlaydi.

**Saida YUSUPOVA, qaynona:**

— Yoshligimda oilamizda buvim, onam, opa-singillarim suhbatlashib o'tirsak, buvim bizga alla ayitshni o'rgatardi. "Allani sekin, mayin ovozda ayitsh kerak. Farzanding qanday odam bo'lishini istasang, shu niyatlarini

qo'shiq qilib, sokin ohangda kuylash lozim. Beshik ham ohangga monand sekin tebratiladi", der edi.

Turmush qurib, ona bo'lganimda qaynonam farzandimni birinchi bor beshikka belagach, meni beshik yoniga o'tirg'izib, alla ayta boshladi. Bolam uxlagandan so'ng menga: "endi doim shunday alla ayting, o'shanda bola yaxshi orom oladi", degandi. Men ham kelinlarimga xuddi shunday qilib alla ayitshni o'rgatdim.

**Saodat BERDIYEVA, uy bekasi:**

— Yodimda, chamasi to'rt yoshimda onam ukamga alla aytib uxlatardi. Men ham ko'zimni yumib yotardim-u, ammo butun e'tiborim bilan onamning allasini eshitardim. Ba'zida allani tinglab turib, negadir ko'zimga yosh kelardi. Hozir onam aytgan o'sha allaning so'zlari yodimda bo'lmasa-da, ohangi esimda qolgan.

Kichik farzandimni uxlatayotganimda, to'rt yashar qizim har safar menga qo'shilib alla aytadi. Hatto, qo'g'ir-

chog'ini ham allalab uxlatadi. Unga qarab, bolaligim esimga tushadi. Demak, qiz bola allani onasidan o'rganadi.

**Dilrabo ABDUSAMATOVA, talaba:**

— Biror ma'lumot zarur bo'lib qolsa, darrov internetga murojaat qilishga odatlanganman. Farzandimga alla ayitsh uchun ham uning matnini internetdan olaman. Uni o'zim bilgan alla ohangiga solib farzandimni allalayman. Menimcha, barcha allaning ohangi bir xil, faqat matnida farq bo'ladi. Bu ohang hammaga tanish. Kimdir uni onasidan, kimdir kelinoyisidan, yaqinlaridan tinglab o'rganadi. Afsuski, hozirgi kunda o'zbek ayolining qalb qo'ridan chiquvchi allani ba'zi yosh onalar aytmay qo'yishyapti. Alla unutilish arafasida turibdi, uning o'rmiiga onalarimiz bola ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi allaqanday ohanglar orqali farzandini uxlatishga harakat qilmoqda. Allani onalar qalbiga qaytarish kerak, shunda insonlarga mehr va shavfqatni ham qaytargan bo'lamiz.

**Iqbol PARDAYEVA**

**ANJUMAN GLOBALLASHUV VA AXBOROT XAVFSIZLIGI**

**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida "Diniy-ma'rifiy sohani raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi tashkil etildi.**



Tadbirida yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, olimlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda talabalar ishtirok etdi.

— Hozir raqamlashtirilgan dunyoda yashamoqdami, — dedi tadbirida so'z olgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining birinchi o'rinbosari Muza'ffar Komilov. — Hayotimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dav-

latimiz rahbari tomonidan 2020-yil 5-oktabr kuni imzolangan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan ustuvor vazifalar davr bilan hamohang ekanligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda diniy-ma'rifiy sohani raqamlashtirish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, buyuk allo-malarimiz asarlari va qadimiy qo'lyozmalar raqamli ko'ri-

nishga o'tkazilmoqda. Bu orqali buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini asrab-avaylash bilan birgalikda ularni kelajak avlodga yetkazish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz.

Anjuman davomida "Kiber-makonda internet jurnalistika etikasi", "Ijtimoiy tarmoqlardan diniy sohada qurol sifatida foydalanish", "Raqamlashtirish jarayonida "Zamonaviy AKT" fanining ahamiyati", "Malayziyada diniy-ma'rifiy sohalarini raqamlashtirish va axborot xavfsizligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar" kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

**Muxbirimiz**



OUTLOV



## 20 yoshing muborak "Kamalak"!

2011-yil edi. Endigina 6 yoshga to'lgandim. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazilgan "Yangi avlod" respublika ko'rik-tanlovida jamoaviy raqs bo'yicha g'olib bo'lgandim. Shu-shu "Kamolot" tadbirlarida faol ishtirok etadigan bo'ldim. 12 yoshimda "Kamalak yulduzlari" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdim.

Umuman, mening shu Vatanning erka farzandi sifatida unib-o'sishimda yoshlar tashkilotining o'rnini juda katta bo'ldi. Xususan, 2016-2018-yillarda viloyat "Kamalak" bolalar tashkiloti "Matbuot" bo'limi sardori, 2018-2019-yillarda viloyat "Kamalak" sardori sifatida faoliyat olib bordim. 2020-yilda Yoshlar ittifoqi sardori etib saylandim.

Kamalak va Yoshlar ittifoqi sardori sifatida Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida o'tkazilgan respublika anjumanlari, forumlar, seminarlarda ishtirok etib, bilim va ko'nikmalarimni mustahkamladim. Ustozlarim Murod Zufarov, Azizbek Bahodirov, Durдона Rahimova va Muhammadjon Komiljonovdan bilim va mahorat sirlarini o'zlashtirdim.

Eng muhimi, "Kamalak" sababli barcha viloyatlarda do'stlarim bor. Ular go'yoki opa-singlim va aka-ukamdek. Ular bilan doim telefon orqali

muloqotda bo'lib turamiz. Do'stlar mehri boshqacha. Mana shu do'stlik men uchun eng yuksak mukofot. Indira Xoldarova, Matluba Saxiyeva kabi mehribon, maslahatgo'y opajonlarim, Baxtiyor Umarovdek e'tiborli, jonkuyar akalalarim, Marjona Jo'raqulova singari chin do'stlarim borligi uchun "Kamalak"dan minnatdorman. Garchi yoshimiz ulg'ayib, yoshlar tashkilotidan uzqlashsak ham do'stlik rishtalarimiz uzilmaydi.

O'ylaymanki, yaqinda Toshkent viloyatida bo'lib o'tadigan XX "Vatan, do'stlik va baxtli bolalik" deb nomlangan navbatdagi respublika anjumanini har yilgidanda ajoyib o'tadi. Chunki bu yil qadrdon "Kamalak" tashkilotimiz 20 yoshga to'ladi. Shu munosabat bilan tashkilot faoliyatiga ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolaman!

**Yulduz ERGASHEVA,**  
Termiz shahridagi  
10-maktabning  
9-sinf o'quvchisi

## "Taymonim tazyig'i ostida H so'zlayman..."

"Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al bog'bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada... tug'ilganman".

Bu tarjimai hol egasi o'zi o'yilashicha, bemavrid tug'ilgan, ammo aslida bevaqt hayotni tark etgan, milliy adabiyotimizning chinori — Abdulla Qodiriy!

...1914-yil 1-aprel. "Sadoi Turkiston" gazetasi "Toshkent xabarlari" ruknida "Yangi masjid va maktab" sarlavhali maqola chop etilgan. Uning muallifi 1913-yildan o'zbek tilida chiqa boshlagan "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" gazetalari va "Gap yozib yuradigan" va o'zbek milliy jurnalistikasiga ilk qadamini qo'yib, uni bunyod qilish yo'lida sobitqadam bo'lgan shaxs — Abdulla Qodiriy edi.

Tatarlarda chiqadigan gazetalarini o'qib, dunyoda gazeta degan gap borligini imon keltirgan bu insonning keyingi faoliyati ham gazeta bilan bog'liq. U matbuot orqali xalq ichiga tezroq kirib borish, insonlarni hur fikrli qilish mumkinligini teran anglagandi. Uning "Yangi masjid va maktab" nomli maqolasi yangi o'tkir qalamning jurnalistika olamiga kirib kelganini bildirgan bo'lsa, oradan 12 yil o'tib, ya'ni 1926-yil "Mushtum" jurnalining 27-sonida "Ovsar" taxallusi bilan bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi kimlardir sarosimaga solib qo'ydi. Shu maqola sabab Qodiriy bobomizga ilk bor O'zSSR JKning 72- va 105,1-moddasi bilan ayblov e'lon qilindi. Chunki unda jamiyat hayoti achchiq kinoyaga olingan, o'sha vaqtdagi ahvolimiz ochiq bayon etilgandi. Maqolada, jumladan, shunday yoziladi: "Men senga aytaman, o'zbekning ishchisi, dehqoni, ma'orifi, madaniyati, iqtisodi, shaltay-baltayi, xullas, barchasi ham uxlaydi. Ammo o'choqboshini (hukumat) xoli topqan olaqarg'alar (kelgindi) bo'lsa, xo'bam bilgan noma'qulchiligini qilayapti!".

Qodiriy hech qo'rqmasdan o'sha vaqtdagi hukumatni "kelgindi", "olaqarg'a" deydi. Bu jasoratni vatanga bo'lgan muhabbat, el qayg'usi bergani hech kimga sir emas.

Shu bois, bugun har bir yurtdoshimiz Qodiriydek bobolarimizni nafaqat faxr bilan eslashi, balki ulardan ibrat olishi kerak.

Afsuski, bugun bir-ikki hikoyasi, she'ri bilan o'zini yozuvchi, shoir sanab yurganlar qancha! Ularning maqsadi Qodiriy va uning zamondoshlari kabi uxlayotgan millatni o'z qalami, yozganlari bilan uyg'otish, ko'zini ochish emas, tezroq e'tiborga tushish, unvon olish.

Axir, Qodiriy 1919-yili "O'tkan kunlar"ni, 1928-yili "Mehrobdan chayon"ni, 1935-yili "Obid ketmon"ni oradan uchun yozmagan edi!

**"Surishtirganmiding  
Qodiriy yo,  
Qalqon bo'lganmiding  
kelganda balo?"...**

Bir vaqtlar oshxonadagi ko'mir solingan yog'och yashik tagiga yashirib qo'yilgan, ming tahlakada, ammo ham kulib, ham yig'lab o'qilgan asarni bugun biz, yoshlar kitob do'konlari, kutubxona javonlarida ko'rsak-da, qo'lga olishga gohida erinchoqlik qilamiz. Bundan 50, 60 yil avval bu asardan DTM testlarida savol berilmagan yoki talabalarga sessiya vaqtda taqdimot qilish vazifasi yuklatilmagan, biroq asar qayta va yana qayta o'qilgan. Nega? Chunki istiqloq sari talpingan qalqlar bu asarni o'qib taskin, quvvat olgan!

"O'zbek xalqi savodsiz edi, omi edi, bizlar uni madaniyatli qildik", deb jar solayotgan mustamlakachiga javoban ketma-ket yozilgan asarlar, maqolalar... bularning barchasi o'zbek xalqini ulug'ladi. Uning buyukligi aniq edi, lekin aksariyat odamlar buni ochiq-oydin ayta olmasdi. Bu roman-u hikoyalarni xuddi yuziga tushgan tarsakidek qabul qilgan "odil hukumat"



o'ylab-o'ylab, turli bo'htonlar to'qib chiqardi, alal oqibat haqiqat farzandining qat'iyat bilan "Men bu borada o'zimni aybdor deb bilmayman", degan so'nggi so'zi bilan chinorning umriga xotima berdi.

Serqirra adibning keyingi yillarda yozgan "Uloqda" hikoyasi, adibning ijod cho'qqisida, o'zbek adabiyotida yaratilgan ilk roman — "O'tkan kunlar", milliy romanchilikda tub burilish qilgan "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" va shu kabi adib ijodiy zaxinasidagi yana ko'plab asarlar 1938-yilning 15-fevralidagi ko'rgazmada ro'yxat qilib tuzilib, barchasi bekor (izyati) qilindi. Ammo xalqning tashna qalbidan bu asarlarni hech kim, hech qachon o'chira olmadi. 1956-yilga kelib shaxsiga sig'inishning zararli oqibatlari qoralanib, Stalin davrida qatag'on qilinganlar oqlana boshladi. Shunda ham talay mashaqqatlar bilan Qodiriy vafotidan 18 yil o'tib, "Xalq dushmani" degan tamg'a olib tashlandi.

Qodiriy bobomiz suddagi nutqida "Yig'indi gaplar" maqolasiga izoh berar ekan shunday deydi: "Bizda bir xil kishilar bor, ya'ni ziyolinalar. O'zlari amalda bir pullik ish qilmaydilar, ammo og'izda ko'cha sasitib, hasratlanub yuribdurlar".

Bunday qiyofadagi kimsalar har zamonda ham bo'lgan va yashashda davom etaveradi. Farq shundaki, zamon aylaniy ular goh poygakda, gohi to'rga chiqib qoladi. Qodiriy ana shunday kimsalar o'choqboshini egallagan vaqtda umr kechirdi. Shunday tuban kimsalar sabab o'limgidan bir kun o'tib uni otuvga buyurish haqidagi hukm chiqarildi. Lekin xalq o'z ulug'larini, asl farzandlarini unutmaydi. Bugun nomi abadiyatga muhrlangan Qodiriy xalqimizning, biz kabi yoshlarning qalbidagi yashayapti.

Ziyoda RAHIMBOYEVA

YOSHLAR OVOZI

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON  
YOSHLAR ITTIFOQI  
MARKAZIY KENGASHI


BOSH MUHARRIR:  
Hamza  
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda  
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:  
Yelena KALININA

NAVBAHCI MUHARRIR:  
Jamshid MUSURMONOV

DIZAYNER:  
Zafar RO'ZIYEV



TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar  
ko'chasi, 32.

Telefonlar:

(71) 233-22-16.  
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter  
markazida teriladi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.  
Hajmi - 3 bosma tabaq.  
Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma G-555  
Adadi - 587

Boshiga topshirish vaqti - 21.00  
Topshirildi - 20.02